KINOSSENARIYLAR MATNLARIDA AKSLANGAN METAFORIK VA SIMVOLIK (RAMZIY) ANTONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Raximova Feruzaxon To‘lqin qizi,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20249796

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek kinossenariy matnlarida uchraydigan* ***metaforik*** *hamda* ***simvolik (ramziy)*** *antonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kinematografik diskursda antonimlar faqat leksik-semantik qarama-qarshilikni emas, balki madaniy kodlar, emotsional baholash va ideologik qarashlarni ham ramziy darajada ifodalashi bilan ajralib turadi. Qiyosiy yondashuv asosida antonimlarning metaforik kengayishi, simvolik yuklamasi va madaniy-pragmatik funksiyalari yoritildi. Tahlil natijalari ingliz kinossenariylarida antonimik oppozitsiyalar ko‘proq shaxsiy tanlov va psixologik ichki kurash (individualizm) bilan bog‘liq holda, o‘zbek kinossenariylarida esa axloqiy-me’yoriy baholash, diniy-ruhiy dualizm hamda jamoaviy qadriyatlar (kollektivizm) bilan bog‘liq holda faollashishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *kinossenariy, kinematografik diskurs, metaforik antonimlar, simvolik antonimlar, lingvokulturologiya, prefabrikatsiyalangan og‘zaki nutq.*

Abstract. *This article analyzes the linguocultural features of metaphorical and symbolic antonyms found in English and Uzbek film script texts. In cinematographic discourse, antonyms function not only as lexical-semantic oppositions, but also as symbolic representations of cultural codes, emotional evaluations, and ideological perspectives. Based on a comparative approach, the study examines the metaphorical extension, symbolic load, and cultural-pragmatic functions of antonyms. The results of the analysis demonstrate that antonymic oppositions in English film scripts are more frequently associated with personal choice and psychological inner conflict (individualism), whereas in Uzbek film scripts they are activated mainly through moral-normative evaluation, religious-spiritual dualism, and collective values (collectivism).*

Keywords: *film script, cinematographic discourse, metaphorical antonyms, symbolic antonyms, linguoculturology, prefabricated orality.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности метафорических и символических (образных) антонимов, встречающихся в английских и узбекских киносценариях. В кинематографическом дискурсе антонимы выступают не только как лексико-семантические противопоставления, но и как символические репрезентации культурных кодов, эмоциональных оценок и идеологических взглядов. На основе сравнительного подхода рассматриваются метафорическое расширение, символическая нагрузка и культурно-прагматические функции антонимов. Результаты анализа показали, что в английских киносценариях антонимические оппозиции чаще связаны с личным выбором и психологической внутренней борьбой (индивидуализмом), тогда как в узбекских киносценариях они активизируются преимущественно через морально-нормативную оценку, религиозно-духовный дуализм и коллективные ценности (коллективизм).*

Ключевые слова: *киносценарий, кинематографический дискурс, метафорические антонимы, символические антонимы, лингвокультурология, префабрикованная устная речь.*

Kirish. Kinematografiya matnlari (screenplays/kinossenariylar) tilshunoslikda o‘ziga xos tadqiqot obyekti bo‘lib, ular yozma shaklda yaratilsa-da, dialogik qurilishi orqali

og‘zaki nutqni taqlid qiladi va shu bilan birga vizual hamda sahnaviy ko‘rsatmalar bilan semantik-pragmatik jihatdan boyitiladi [1]. Shu sababli kinossenariylar “gibrid” matn sifatida baholanadi: bir tomondan yozma me’yorlarga tayanadi, ikkinchi tomondan esa tomoshabin idrokida og‘zaki muloqot taassurotini uyg‘otadi. Bunday holat audiovizual matnlar nazariyasida prefabrikatsiyalangan og‘zaki nutq (prefabricated orality) tushunchasi bilan izohlanadi [2,5].

Kinossenariyda dialog va deskripsiyalar dramatik qarama-qarshiliklarni kuchaytiruvchi stilistik birliklarni, xususan antonimlarni faol qo‘llaydi. Antonimlar (qarama-qarshi ma’noli birliklar) kinematografik diskursda ikki yo‘nalishda muhim vazifani bajaradi: (1) voqea va obrazlar o‘rtasidagi ziddiyatni kompozitsion jihatdan “ko‘rinadigan” qiladi; (2) madaniy qadriyatlar hamda baholash mezonlarini ramziy tarzda kodlaydi. Metaforik antonimlar (masalan, *nur–zulmat*, *hope–despair*) oddiy leksik oppozitsiya chegarasidan chiqib, konseptual qarama-qarshilikni shakllantiradi [6]. Simvolik (ramziy) antonimlar esa diniy, axloqiy yoki ijtimoiy madaniy kodlar bilan birikib, tomoshabinning madaniy tajribasi orqali talqin qilinadigan qo‘shimcha semantik qatlamni hosil qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Kinossenariy matnlari zamonaviy tilshunoslikda audiovizual va dramatik diskursning muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganiladi. Xu va Wijitsopon kinodiskursda leksik birliklarning pragmatik funksiyalarini tahlil qilgan bo‘lsa, Baños va Chaume prefabrikatsiyalangan og‘zaki nutq hamda audiovizual tarjima nazariyasini yoritgan [1;2;5]. Cruse antonimlarning semantik tasnifini ishlab chiqib, ularning qarama-qarshilik yaratishdagi rolini asoslagan [4]. Lakoff va Johnson metaforik oppozitsiyalarning konseptual xarakterini izohlab, “yorug‘lik–zulmat”, “umid–umidsizlik” kabi juftliklarning kognitiv tabiatini ochib bergan [6]. Maslova esa lingvokulturologik yondashuv asosida antonimlarning milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligini ta’kidlagan [7]. O‘zbek tilshunosligida dramatik diskurs va konseptual oppozitsiyalar Xursanov tomonidan tadqiq etilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot lingvokulturologik va diskursiv yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida deskriptiv, kontekstual va qiyosiy-kontrastiv metodlardan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek kinossenariy matnlaridagi metaforik hamda simvolik antonimlarning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlari tahlil qilindi. Lingvokulturologik talqin orqali antonimlarning milliy qadriyatlar, diniy-axloqiy konseptlar va madaniy kodlar bilan bog‘liqligi yoritildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda telekinematik (audiovizual) diskursni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Chunki film matni global auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lsa-da, u milliy dunyoqarash, stereotip va qadriyatlar tizimini ham tashiydi. Shu nuqtayi nazardan kinossenariyda qo‘llanadigan antonimlar

faqat stilistika vositasi emas, balki milliy madaniyatning qarama-qarshi konseptlar tizimi (masalan, “halol–harom”, “o‘z–begona”, “haqiqat–yolg‘on”)ni kommunikativ ravishda faollashtiruvchi mexanizmdir.

Ushbu maqolaning maqsadi — ingliz va o‘zbek kinossenariylarida metaforik va simvolik antonimlarning lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish. Tadqiqot obyekti — ingliz va o‘zbek kinossenariy matnlaridagi antonimik birliklar; predmeti — ularning metaforik kengayishi, simvolik yuklamasi va lingvokultural funksiyalari.

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

Deskriptiv va kontekstual tahlil: antonimlarning kinossenariy kontekstidagi semantik va pragmatik vazifasini aniqlash.

Qiyosiy (kontrastiv) tahlil: ingliz va o‘zbek matnlarida antonimik oppozitsiyalarning madaniy motivatsiyasini solishtirish.

Lingvokulturologik talqin: antonimlarning madaniy konseptlar (qadriyatlar, me’yorlar, diniy-axloqiy kodlar) bilan aloqasini izohlash.

Diskursiv yondashuv: kinossenariy matnining prefabrikatsiyalangan og‘zaki nutq xususiyati doirasida antonimlarning dramatik funksiyasini yoritish [2,5].

Material sifatida ingliz va o‘zbek kinematografiyasida keng tarqalgan konseptual oppozitsiyalar (masalan, *light–darkness*, *hope–despair*, *truth–lie*, *nur–zulmat*, *halol–harom*, *do‘st–dushman*, *yosh–qari*) asosida tuzilgan tahliliy misollar, shuningdek, audiovizual diskurs va metafora nazariyasiga oid ilmiy manbalar jalb etildi [1–7].

Antonimlarning lingvokulturologik tabiati

Antonimlar leksik semantikada qarama-qarshi ma’noli birliklar sifatida izohlanib, gradual (darajali), komplementar (to‘ldiruvchi) va kontrar (qarama-qarshi) turlarga ajratiladi [4]. Lingvokulturologik yondashuvda antonimlar til birliklari sifatida **madaniy oppozitsiyalar**ning verbal ko‘rinishi sanaladi. Masalan, *hayot–o‘lim*, *yaxshi–yomon*, *nur–zulmat* kabi juftliklar turli madaniyatlarda turli simvolik ma’nolarni yuzaga keltirishi mumkin: ayrim madaniyatlarda “zulmat” faqat yovuzlik ramzi bo‘lsa, boshqa madaniyatlarda u ichki tafakkur yoki sinov bosqichini bildirishi ehtimoli mavjud.

Lingvokulturologiyada oppozitsiyalar odatda konseptual darajada namoyon bo‘ladi: “o‘z” va “begona”, “pok” va “nopok”, “ruxsat” va “taqiq”, “muqaddas” va “oddiy”. Kinodiskursda bunday oppozitsiyalar ikki kanalda bir vaqtning o‘zida ishlaydi:

verbal kanal (dialog, monolog, deskripsiya),

vizual/akustik kanal (kadr, rang, yorug‘lik, musiqa, pauza).

Shu bois kinossenariy matnida antonimlar ko‘pincha multimodal ta’sir bilan birikadi: masalan, “yorug‘lik”ni ifodalovchi replika kadrdagi yorug‘lik kuchayishi bilan parallel ketishi yoki “zulmat”ni ifodalovchi replika past tonal musiqiy fon bilan kuchayishi

mumkin. Bu jihat antonimlarning semantik funksiyasini kuchaytiradi va ularni oddiy leksik qarama-qarshilikdan ramziy konseptga aylantiradi.

Metaforik va simvolik antonimlarning farqi

Metaforik antonimlarda qarama-qarshilik ko‘pincha abstrakt konseptlar orqali ko‘chma ma’noda quriladi: “umid — yorug‘lik”, “umidsizlik — zulmat” kabi konseptual bog‘lanishlar yuzaga keladi [6]. Simvolik antonimlarda esa birikma ma’nosi madaniy kodlar bilan mustahkamlanadi: masalan, *halol–harom* juftligi faqat “to‘g‘ri–noto‘g‘ri” qarama-qarshiligini emas, balki diniy-axloqiy me’yorni ham o‘zida mujassam etadi.

Ingliz kinossenariylarida antonimik oppozitsiyalar ko‘pincha individning ichki emotsional holati va psixologik transformatsiyasini aks ettiradi. Masalan, *hope–despair* oppozitsiyasi konseptual metafora orqali “ichki yorug‘lik” va “ichki zulmat” kabi semantik tasvirlarni hosil qilib, qahramonning ruhiy evolyutsiyasini ifodalashda qo‘llanadi [6]. Bu juftlik gradual antonimiya xarakteriga ega bo‘lib, emotsional holatlarning darajalanishini ko‘rsatadi.

Komplementar antonimiya misoli sifatida *alive–dead* oppozitsiyasi ko‘pincha motivatsiya, o‘zgarish va “qayta tug‘ilish” ramzi bilan bog‘lanadi. Kinematografik diskursda “tirik” va “o‘lik” faqat biologik holatni emas, “ma’naviy uyg‘oqlik” va “ichki bo‘shashish” kabi ramziy ma’nolarni ham bildirishi mumkin.

Shuningdek, ingliz kinematografiyasida *truth–lie*, *real–fake* kabi oppozitsiyalar shaxsiy tanlov, individual javobgarlik va erkinlik konseptlari bilan uyg‘unlashadi. Bunday ramziy qarama-qarshiliklar G‘arb madaniyatidagi individualizm va shaxsiy tanlov qadriyatlarini diskurs darajasida mustahkamlaydi [3].

Ingliz tilidagi kinossenariylarda quyidagi oppozitsiyalar tez-tez uchraydi:

light–darkness — “bilish/anglash” va “noaniqlik/xavf” ramzi,
freedom–control — “erkinlik” va “tizim bosimi” qarama-qarshiligi,
self–society — “men” va “jamiyat” o‘rtasidagi konflikt,
order–chaos — “me’yor” va “buzilish” oppozitsiyasi.

Bu oppozitsiyalar film qahramonining ichki monologi, konfliktli dialoglar va qaror qabul qilish sahnalarida antonimik qurilmalar orqali kuchaytiriladi.

O‘zbek kinossenariylarida antonimlar ko‘proq axloqiy-me’yoriy baholash hamda diniy-ruhiy dualizm bilan uzviy bog‘lanadi. Masalan, *nur–zulmat* oppozitsiyasi ko‘pincha haqiqat va johillik, imon va kufr kabi konseptual qarama-qarshiliklar bilan birikib, simvolik qatlam hosil qiladi. Bu holat lingvokulturologik adabiyotlarda sharqiy madaniyatlarda dualistik tasavvurlarning nisbatan kuchli ekanligi bilan izohlanadi [7].

Halol–harom juftligi o‘zbek diskursida qadriyatlar tizimini bevosita belgilovchi antonimik oppozitsiya bo‘lib, “to‘g‘ri yo‘l” va “buzilish/gunoh” kabi baholash mezonlarini

jadallashtiradi. Bunday antonimlar kinossenariy matnida qahramonning axloqiy pozitsiyasini qisqa va aniq ko‘rsatish imkonini beradi.

Do‘st–dushman oppozitsiyasi esa jamoaviylik, sadoqat, ijtimoiy rol va “o‘z–begona” chegarasini belgilashga xizmat qiladi [3]. O‘zbek madaniyatida munosabatlar tarmog‘i (qarindoshlik, mahalla, do‘stlik) muhim bo‘lgani uchun kinodiskursda “bizniki” va “begona” oppozitsiyasi ko‘pincha konfliktning markaziy mexanizmi sifatida ishlaydi.

Gradual antonimiya misoli sifatida *yosh–qari* oppozitsiyasi hayot tsikli, donolik va tajriba ierarxiyasini ramziy ifodalab, o‘zbek madaniyatidagi kattaga hurmat konsepti bilan uyg‘unlashadi.

O‘zbek kinossenariylarida quyidagi oppozitsiyalar ko‘proq uchraydi:

halol–harom — axloqiy va diniy mezon,

imon–kufr (yoki unga yaqin qiymatlar) — ruhiy dualizm,

o‘z–begona — ijtimoiy chegaralar,

or–nomus va *sharmandalik* (qarama-qarshi baholash maydoni) — ijtimoiy obro‘ konsepti,

adolat–zulm — ijtimoiy baholash va “haq” konsepti.

Bu oppozitsiyalar ko‘pincha qahramonning ijtimoiy mavqeyi, oilaviy mas’uliyati va jamoa oldidagi burchi bilan bog‘liq dramatik vaziyatlarda faollashadi.

Ingliz va o‘zbek kinossenariy matnlaridagi antonimlarning qiyosiy tahlili quyidagi tendensiyalarni ko‘rsatadi:

Ingliz kinossenariylarida antonimlar ko‘proq **psixologik ichki kurash** va individual emotsional holatlarni ifodalaydi (masalan, *hope–despair*, *light–darkness*) [6].

O‘zbek kinossenariylarida antonimlar ko‘proq **axloqiy-me’yoriy baholash** hamda diniy-ruhiy dualizm bilan bog‘lanadi (masalan, *nur–zulmat*, *halol–harom*) [7].

Prefabrikatsiyalangan og‘zaki nutq sharoitida (dialogning dramatik “sun’iyligi”) antonimlar har ikkala madaniyatda ham konfliktni intensifikatsiya qiladi, biroq ularning **madaniy motivatsiyasi** turlicha: biri ko‘proq shaxsiy tanlov va “men” konseptiga, boshqasi esa jamiyat, me’yor va kollektiv mas’uliyatga tayanadi [2,3,5].

Antonomik oppozitsiyalarning pragmatik funksiyalari

Kinossenariy matnida antonimlarning pragmatik funksiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Konfliktni soddalashtirib “markazlashtirish” (tomoshabin uchun ziddiyatning asosiy o‘qini belgilash).

Baholashni tezlashtirish (qahramonning “yaxshi/yomon”, “o‘z/begona” kabi axloqiy pozitsiyasini ko‘rsatish).

Kadr va sahna qurilmasi bilan uyg‘unlashish (yorug‘lik/soya, tovush/sukut kabi multimodal qarama-qarshiliklarni verbal ravishda mustahkamlash).

Madaniy identifikatsiyani faollashtirish (muayyan oppozitsiyalar orqali auditoriyaning qadriyatlar tizimiga murojaat qilish).

Xulosa. Kinossenariy matnlarida metaforik va simvolik antonimlar kinematografik diskursning semantik hamda lingvokulturologik “tayanch nuqtalari”dan biri hisoblanadi. Ular dramatik qarama-qarshilikni yaratish bilan birga, madaniy qadriyatlar va konseptlarni ramziy tarzda kodlaydi. Qiyosiy tahlil ingliz kinossenariylarida antonimlar asosan psixologik-introspektiv mazmunga ega ekanini, o‘zbek kinossenariylarida esa axloqiy-diniy hamda kollektiv qadriyatlar bilan kuchli bog‘liqligini ko‘rsatdi. Kelgusida multimodal korpuslar (dialog + vizual komponentlar) asosida, shuningdek, aniq film/serial ssenariylari korpusi misolida antonimlarning semantik va ramziy funksiyalarini yanada chuqurroq tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xu R, Wijitsopon R. Corpus Linguistics and Cinematic Discourse: Lexical Bundles in Mainstream Film Scripts. LEARN Journal: Language Education and Acquisition Research Network. 2023;16(1):545-574.
2. Baños R. Prefabricated orality in audiovisual translation. In: The Routledge Handbook of Translation Studies and Linguistics. London: Routledge; 2018. p. 256-269.
3. Khursanov N.I. ECOLINGUISTICS IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM: RESEARCH OBJECT AND PURPOSE. InConferences 2025 Dec 12 (Vol. 1, No. 8, pp. 780-783).
4. Cruse DA. Lexical semantics. Cambridge: Cambridge University Press; 1986.
5. Chaume F. Audiovisual translation: Dubbing. Manchester: St. Jerome Publishing; 2012.
6. Lakoff G, Johnson M. Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press; 1980.
7. Maslova VA. Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya; 2001.
8. Xursanov N.I. Dramatik diskursning kognitiv maydoni // Til va adabiyot.uz ilmiy-metodik elektron jurnal. 9 son, 2024. 131-133 b.